

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi "Eng namunali vazirlik va idora" tanlovida "O'zkimyosanoat" AJ 3-o'rinni egalladi

// 23.09.2022

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eng-namunali-vazirlik-va-idora-tanlovi>



Bugun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi "Eng namunali tuman va shahar" hamda "Eng namunali vazirlik va idora" tanlovlari g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

"Eng namunali vazirlik va idora" tanlovida Ichki ishlar vazirligi 1-o'rin (92,5 ball), Mudofaa vazirligi 2-o'rin (92,1), Milliy gvardiya va "O'zkimyosanoat" AJ 3-o'rinni (88,4) egalladi. Shuningdek, Davlat soliq qo'mitasi 4-o'rin (81,3), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi 5-o'ringa (78,6) munosib topildi.

Tanlov g'olibi sifatida "O'zkimyosanoat" AJga 12,5 mln so'm pul mablag'i hamda 4,0 mln so'mlik kitoblar jamlanmasi taqdim etildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati